

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI**

**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**KEGEYLI TUMANINING
MAKROIQTISODIY KO‘RSATKICHLARI**

**2023 YIL
YANVAR-MART**


Qisqartma va shartli belgilar

%.	–	foiz	l.	–	litr
mlrd.	–	milliard	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSh doll.	–	million AQSh dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	1), 2), 3)	–	izohning mavjudligi
m.	–	marta			

MUNDARIJA

Nomi	bet
KEGEYLI TUMANI XARITASI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI	4-5
I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI	6-8
II. SANOAT	9-12
III. XIZMATLAR	13-17
IV. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	18-23
V. INVESTITSIYALAR VA QURILISH	24-27
VI. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIYALOQALAR	28-30
VII. QISHLOQ, O'RMON VA BALIQCHILIK XO'JALIGI	31-38
VIII. DEMOGRAFIYA VA BANDLIK	39-42
IX. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	43-44

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi
Kegeyli tumanining
XARITASI**



Respublika	Qoraqalpog‘iston
Tuman	Kegeyli
Markazi	Kegeyli shaharchasi
Tashkil topgan vaqti	<i>03.09.1928 y.</i>
Umumiy maydoni, <i>ming km²</i>	<i>0,92 ming km²</i>
Tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar	<i>1 ta</i>
Qishloq fuqarolari yig‘inlari soni	<i>8 ta</i>
Mahalla fuqarolari yig‘inlari soni	<i>8 ta</i>
Qishloq aholi punktlari	<i>130 ta</i>
2023 yil 1 aprel holatidagi doimiy aholi soni, ming kishi	74,3
<i>sh.j.:</i> shahar	30,0
<i>qishloq</i>	44,3
Respublika poytaxtigacha bo‘lgan masofa, km.	39,9 km.
Chegaradosh viloyatlar	-
Chegaradosh tumanlar	<i>Nukus, Chimboy, Qorao‘zak, Bo‘zatov,</i>

I. TUMANNING ASOSIY IJTIMOIIY-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar (2023 yilning yanvar-mart oylarida)

	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2022 yilning yanvar-martga nisbatan foizda	mingso'm	2022 yilning yanvar-martga nisbatan foizda
Sanoat	98,0	115,3	1 319,9	114,4
Iste'mol tovarlari	12,4	102,6	167,5	101,8
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	54,9	100,3	738,6	99,6
Asosiy kapitalga investitsiyalar	27,3	104,6	368,0	103,8
Qurilish ishlari	17,2	100,7	231,2	99,9
Chakana tovar aylanmasi	55,4	94,2	745,9	93,5
Xizmatlar jami	52,5	111,0	707,0	110,1

Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)

	Tashqi savdo aylanmasi	Ekspart	Import	Saldo
2023 yilning yanvar-mart oylarida	1,3	1,3	0,0	1,3

**Kegeyli tumanining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bilan solishtirma
asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari**
(2023 yilning yanvar-mart oylarida)

	Hajmi mlrd. so‘m	2022 yilning yanvar- martiga nisbatan foizda	Kegeyli tumanining respublikada tutgan ulushi, %da
Sanoat	98,0	115,3	2,6
Iste‘mol tovarlari	12,4	102,6	2,1
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	54,9	100,3	4,1
Asosiy kapitalga investitsiyalar	27,3	104,6	1,3
Qurilish ishlari	17,2	100,7	1,7
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	2,4	92,0	1,9
Yo‘lovchi aylanmasi (mln. yo‘lovchi-km)	27,9	103,1	2,9
Chakana tovar aylanmasi	55,4	94,2	2,8
Bozor xizmatlari	52,5	111,0	1,9
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh dollari)	1,3	46,3	1,0
Eksport (mln. AQSh dollari)	1,3	59,8	1,9
Import (mln. AQSh dollari)	-	-	-

Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahlili

	2023 yil yanvar-mart, mlrd. so'm		
	O'zbekiston Respublikasi	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Kegeyli tumani
Sanoat	130 997,6	3 804,0	98,0
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>104,1</i>	<i>86,7</i>	<i>115,3</i>
Iste'mol tovarlari	40 013,6	603,6	12,4
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>105,1</i>	<i>102,8</i>	<i>102,6</i>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	40 416,3	1338,1	54,9
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>103,2</i>	<i>102,4</i>	<i>100,3</i>
Asosiy kapitalga investitsiyalar	56 557,6	2 076,7	27,3
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>103,1</i>	<i>118,6</i>	<i>104,6</i>
Qurilish ishlari	27 024,5	984,8	17,2
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>102,4</i>	<i>96,4</i>	<i>100,7</i>
Chakana tovar aylanmasi	49 620,0	1 968,3	55,4
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>105,2</i>	<i>104,1</i>	<i>94,2</i>
Jami xizmatlar	96 607,9	2 712,7	52,5
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>110,7</i>	<i>106,1</i>	<i>111,0</i>
Eksport, mln. AQSh dollari	5 688,9	68,6	1,3
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>97,4</i>	<i>84,0</i>	<i>59,8</i>
Import, mln. AQSh dollari	9 090,8	55,1	-
<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>123,4</i>	<i>110,6</i>	-

Kegeyli tumani asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarida kichik biznes ulushi (2023 yil yanvar-mart oylarida, foizhisobida)


Sanoat	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Investitsiya	Qurilish ishlari	Chakana tovar aylanmasi	Jami xizmatlar	Eksport	Import
15,8	99,7	58,4	95,8	99,4	75,4	10,1	24,3

II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-mart oylarida Kegeyli tumanida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalarini tomonidan 98,0 mlrd.so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 115,3 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 12,4 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2022 yil yanvar-martiga nisbatan 102,6 foizni tashkil etdi. Jumladan, 8,7 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib umumiy hajmga nisbatan 70,0 % ni tashkil qilib, 3,7 mlrd. so'mlik noziq-ovqat mollari (2022 yil yanvar- martiga nisbatan mos ravishda 109,0 foiz va 90,1 foiz) ishlab chiqarildi va umumiy hajmga nisbatan 30,0 % ni tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin.


2023 yilning yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, foizda



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulishi

Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz ichki bozorini tovar va xizmatlar bilan ta'minlashda, aholi bandligi va real daromadlarini oshirishda, resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan samarali foydalanishda, ijtimoiy guruhlar daromadlarining nomutanosibligini kamaytirishda, iqtisodiyotning turli tarmoqlari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni yaxshilashda katta ahamiyatga ega bo'lib, islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy katalizatori hisoblanadi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari bozor kon'yunkturasi o'zgarishlariga ham, iste'molchi talabi o'zgarishlariga ham tez moslashishga qodir bo'lib, iste'mol bozoridagi muvozanatni ushlab turishda muhim rol o'ynaydi, shuningdek, raqobat muhitining shakllanishiga xizmat qiladi. Joriy yilning yanvar-mart oylarida tumanda 98,0 mlrd.so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi amalga oshirilgan bo'lib, shundan 15,5 mlrd.so'm yoki umumiy hajmning 15,8 % ni kichik biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti tashkil qilganligini ko'rishimiz mumkin.


Yanvar-mart oylarida Kegeyli tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning tarkibi (mlrd. so'mda)



Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta’minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Kegeyli tumanida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalarini tomonidan joriy yilning yanvar-mart oylarida 98,0 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi yoki o‘sinh sur’ati o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 115,3 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga nodavlat sektorida 98,0 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga 100 % tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida

(foiz hisobidagi ulushi)




Rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib Qoraqalpog'iston Respublikasi va tumanlarda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida joriy yilning yanvar-mart oylarida Kegeyli tumanida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 98,0 mlrd.so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasining jami sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishida 2,6 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 1319,9 ming.so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 114,4 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, tumanda iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 12,4 mlrd.so'mni tashkil qilib, Qoraqalpog'iston Respublikasining jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishida 2,1 % tashkil etdi. Tumanda ishlab chiqarilgan iste'mol tovarlari aholi jon boshiga 167,5 ming. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 101,8 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

III. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko'rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi. Natijada, 2023 yil yanvar-mart oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 52,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 111,0 % ni tashkil etdi.


Kegeyli tumanida jami xizmatlarning o'sish sur'atlarining dinamikasi
% da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish
(2023 yil yanvar-mart oylari uchun)

	mln.so'm	o'sish sur'ati, % da	jamiga nisbatan % da
Xizmatlar – jami	52 528,4	111,0	100,0
<i>shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	5 440,8	123,5	10,4
moliyaviy xizmatlar	6 920,2	151,8	13,2
transport xizmatlari	12 872,1	108,7	24,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	12 747,5	101,9	24,3
yashash va ovqatlanish xizmatlari	652,0	102,1	1,2
savdo xizmatlari	16 109,4	102,0	30,7
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	1 527,6	104,3	2,9
ta'lim sohasidagi xizmatlar	835,2	101,0	1,6
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	536,8	103,9	1,0
ijara xizmatlari	913,3	101,6	1,7
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	2 500,0	102,1	4,8
shaxsiy xizmatlar	3 373,9	100,5	6,4
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	443,2	147,1	0,8
boshqa xizmatlar	403,9	103,3	0,8


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan
(ko'rsatilgan) bozor xizmatlarning hajmi
(yanvar–mart oylarida)**



Kegeyli tumanida eng katta xizmat hajmi savdo xizmatlar (16109,4 mln. so'm) va transport xizmatlari (12872,1 mln. so'm)ga to'g'ri keladi.

Eng kichik xizmat hajmi esa boshqa xizmatlar (403,9 mln.so'm) va me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (443,2 mln.so'm) ga to'g'ri keladi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, foizda
(yanvar–mart oylarida)



Kegeyli tumani bo'yicha yuqori ulush savdo xizmatlar (30,7 %) va transport xizmatlari (24,5 %)da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan ulush me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar va boshqa xizmatlar (0,8 %) da qayd etildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
xizmatlarining o'sish sur'ati**
(yanvar-mart oylarida)



Kegeyli tumanida o'tgan yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (151,8 %) va arxitektura xizmatlar (147,1 %), da qayd etildi.

Uncha yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari shaxsiy xizmatlar (100,5 %)da qayd etildi.

III. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

1.1 Korxonalar va tashkilotlarning umumiy tavsifi

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, tuman bo'yicha 2023 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 1487 tani tashkil qilib, shundan 1147 tasi yoki 77,1 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 772 ta (51,9 foizi), savdo 204 ta (13,7 foiz), sanoat 127 ta (8,5 foizi) va qurilish sohasiga 70 ta (4,7 foizi)ga to'g'ri keladi.


2023 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan foizda	birlik	yakunga nisbatan foizda
Jami	1487	100,0	1147	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	772	51,9	547	47,7
Sanoat	127	8,5	98	8,5
Qurilish	70	4,7	57	5,0
Savdo	204	13,7	165	14,4
tashish va saqlash	30	2,0	25	2,2
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	49	3,3	37	3,2
axborot va aloqa	14	0,9	12	1,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	14	0,9	13	1,1
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	207	14,1	193	16,9


Ro'yxatga olingan korxonalar umumiy sonining 9,9 foizi notijorat mulki hamda 90,1 foizi tijorat mulki shaklidagi korxonalarni tashkil etadi.

Ushbu korxonalarining 7,0 foizi davlat korxonalar, 4,6 foizi xususiy korxonalar, 0,4 foizi chet el sarmoyasi ishtirokidagi korxonalar, 88,0 foizi boshqa korxonalar ulushiga to'g'ri keldi.

Ro'yxatga olingan yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakllari
(1 aprel holatiga, umumiy soniga nisbatan foiz hisobida)



Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonidan faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi, %



**Yanvar-mart oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**

	2022 y.		2023 y.	
	umumiy soni	ulushi, %	umumiy soni	ulushi, %
Jami	49	100,0	70	100,0
<i>shundan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24	49,0	10	14,3
sanoat	6	12,2	23	32,9
qurilish	1	2,0	-	-
savdo	9	18,4	19	27,1
tashish va saqlash	2	4,1	-	-
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	4,1	4	5,7
axborot va aloqa	-	-	4	5,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	-	-	-	-
boshqa turlar	5	10,2	10	14,3

2023 yil yanvar-mart oylarida jami 70 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro'yxatga olingan (shundan kichik biznes sub'ektlari 69 ta).

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlarning 23 (32,9 foiz) tasi sanoatda, 19 (27,1 foiz) savdoda, 10 (14,3 foiz) tasi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi, 10 (14,3 foiz) tasi boshqa turlar sohasiga g'iri keladi.

Hisobot davrida 10 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik sub'ektlari (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) soni 807 tani tashkil qilib, shundan 639 tasi yoki 79,2 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy qismi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi 240 ta (29,7 foizi), savdo 204 ta (25,3foizi), sanoat 125 ta (15,5foizi), qurilish 69 ta (8,6 foizi), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 49 ta (6,1 foizi) sohalariga to'g'ri keladi.


**2023 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan hamda
faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni**
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	birlik	yakunga nisbatan foizda	birlik	yakunga nisbatan foizda
Jami	807	100,0	639	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	240	29,7	183	28,6
sanoat	125	15,5	96	15,0
qurilish	69	8,6	56	8,8
savdo	204	25,3	165	25,8
tashish va saqlash	30	3,7	25	3,9
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	49	6,1	37	5,8
axborot va aloqa	13	1,6	11	1,7
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13	1,6	12	1,9
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	64	7,9	54	8,5

Xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar

Korxonalar va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2023 yilning 1 aprel holatiga ro'yxatga olingan xorijiy investitsiyalar va sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar soni 7 tani tashkil qilib, 6 tasi faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.04.2022 y.		01.04.2023 y.	
	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %	Korxonalar soni	Jamiga nisbatan ulushi, %
Jami	6	100,0	6	100,0

shundan:

qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	1	16,7	1	16,7
sanoat	4	66,6	4	66,6
boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	1	16,7	1	16,7

**Faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jaligi korxonalarining
mulkchilik shakli bo'yicha yillar kesimida tahlili, birlikda**

	Fermer va dehqon xo'jaliklari soni	shundan:	
		fermer xo'jaliklari	dehqon xo'jaliklari
01.04.2022 y.	407	401	6
01.04.2023 y.	361	359	2

Oilaviy korxonalar to'g'risida ma'lumot

2023 yilning 1 aprel holatiga Kegeyli tumanida jami 27 ta oilaviy korxonalar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, 24 tani tashkil etgan.


Kegeyli tumanida ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalarining respublikada tutgan ulushi 1,1 foizga teng bo'lgan, mos ravishda faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar 1,1 foizni tashkil etgan.

	Ro'yxatga olingan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	01.04.2022 y.	01.04.2023 y.	01.04.2022 y.	01.04.2023 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2136	2492	1973	1976
Kegeyli tumani	28	27	24	21
Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi, %	1,3	1,1	1,2	1,1

V. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2023 yil yanvar-martida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi milliy valyutada 27,3 mlrd. soʻmni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 104,6 foizni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar




	Asosiy kapitalga oʻzlashtirilgan investitsiyalar					
	2022 y.			2023 y.		
	jami, mlrd.soʻm	oʻsish surʻati, % da	ulushi, %	jami, mlrd.soʻm	oʻsish surʻati, % da	ulushi, %
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	1628,3	105,7	100,0	2076,7	118,6	100,0
Kegeyli tumani	24,3	103,1	1,5	27,3	104,6	1,3

Aholi jon boshiga investitsiya koʻrsatkichlari

	2022 y.		2023 y.	
	ming soʻm	oʻsish surʻati, % da	ming soʻm	oʻsish surʻati, % da
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	834,1	124,3	1 049,4	116,9
Kegeyli tumani	329,5	102,4	368,0	103,8


Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar (ming so‘m)



2023 yilning yanvar-martida asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari bo‘yicha taqsimlanishi

	mlrd.so‘m	jamiga nisbatan % da:
Jami moliyalashtirish manbalari hisobidan, mlrd. so‘m	27,3	100,0
Davlat byudjeti	9,4	34,3
Asosan korxonalar va aholi mablag‘lari	10,6	38,7
Tiklanish va taraqqiyot jamgarmasi	-	-
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgarmasi	0,1	0,5
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	7,2	26,5
Xorijiy investitsiya va kreditlar	-	-


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar (% da)



Qurilish faoliyati

2023 yil yanvar-mart oylarida 17,2 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi.

2023 yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarining hajmi va oʻsish surʻati



	Bajarilgan qurilish ishlari					
	2022 y.			2023 y.		
	jami, mlrd.soʻm	oʻsish surʻati, % da	ulushi, %	jami, mlrd.soʻm	oʻsish surʻati, % da	ulushi, %
Qoraqalpogʻiston Respublikasi	968,3	101,0	100,0	984,8	96,4	100,0
Kegeyli tumani	16,2	75,2	1,7	17,2	100,7	1,7

Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi

	2022 y.		2023 y.	
	ming so‘m	o‘shish sur‘ati, % da	ming so‘m	o‘shish sur‘ati, % da
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	496,0	97,0	497,6	95,1
Kegeyli tumani	219,2	74,7	231,2	99,9

2023 yilning yanvar-martida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha obyektlari

	Barcha manbalar hisobidan			
	foydalanishga topshirildi		2022 yil yanvar-martga nisbatan foizda	
	jami	shu jumladan qishloq joylarda	jami	shu jumladan qishloq joylarda
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	2,8	1,7	136,1	192,9
<i>undan:</i>				
yakka tartibdagi uy-joylar	2,8	1,7	136,1	192,9
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo‘yicha shahar va qishloq joylarda	-	-	-	-
Kasalxonalar, yotoq o‘rni	-	-	-	-
Umumiy ta’lim va maxsus maktablar, o‘quvchilar o‘rni	-	-	-	-
Suv tarmoqlari, km.	10,2	-	-	-

2023 yil yanvar-martda umumiy maydoni 2,8 ming kv.m. bo‘lgan 25 ta uy (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 136,1 foiz) uy-joy foydalanishga topshirildi.

VI. ISTE'MOL BOZORI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR


Joriy yilning yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 55,4 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning shu davriga nisbatan 94,2 % ni tashkil qildi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasida (umumiy ovqatlanishni qo'shgan holda) 0,3 mlrd. so'mni tashkil qiladi va umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 0,6 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning tovar aylanmasi 13,6 mlrd. so'mga yetdi, umumiy chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa 24,5 % ni tashkil qildi.


Umumiy tovar aylanmasi hajmining 41,5 mlrd. so'mi yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarning hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi ulushi 74,9 % ga teng bo'ldi.

**Chakana savdo tovar aylanmasi
(ovqatlanishni qo'shgan holda) tarkibi, foizda
(2023 yilning yanvar–mart holatiga)**




	Jami		Aholi jon boshiga	
	mlrd. so‘m	2022 yilning yanvar-martga nisbatan foizda	ming so‘m	2022 yilning yanvar-martga nisbatan foizda
Chakana tovar aylanmasi	55,4	94,2	745,9	93,5

**Tashqi savdoda
eksport va importni ulushi, foizda**



Kegeyli tumanida tashqi savdoning - foizni import tashkil qiladi. Import yanvar-mart oyida - mln dollarga teng bo‘ldi.

Kegeyli tumanining ichki va tashqi savdo ko'rsatkichlarining Qoraqalpog'iston Respublikasida tutgan ulushi, foizda




Tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)

	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Saldo
2023 yilning yanvar-mart oylarida	1,3	1,3	0,0	1,3


Kegeyli tumani tashqi savdo aylanmasi 2023 yilning yanvar–martida 1,3 mln. AQSh dollari, jumladan eksport 1,3 mln. AQSh dollari, import-mln. AQSh dollari, shuningdek tashqi savdo saldosini 1,3 mln. AQSh dollari tashkil etdi.

VII. QISHLOQ, O‘RMONVA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

2023 yilda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi
mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmida dehqonchilik va
chorvachilikning ulushi



2023 yilda ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining
xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasining asosiy ko‘rsatkichlari

	mlrd. so‘m		o‘shish sur‘ati, %
	2022 y.	2023 y.	
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish hajmi	46,2	54,9	100,3
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	45,0	53,4	100,4
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo‘jaliklari	2,4	2,5	84,5
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	42,3	50,7	101,6
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,3	0,2	58,9
Dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi –jami	2,1	2,7	102,5
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo‘jaliklari	1,9	2,4	101,9
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	0,1	0,2	107,8
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	0,2	105,0
Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami	42,8	50,7	100,3
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo‘jaliklari	0,5	0,2	24,7
dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	42,2	50,5	101,5
qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,1	0,0	10,2
O‘rmon xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi	0,7	0,8	101,0
Baliqchilik xo‘jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmat)lar hajmi	0,4	0,4	97,1

Dehqonchilik
Yanvar-martda dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish

	tonna		o'sish sur'ati, %
	2022 y.	2023 y.	
Don va dukkakli don ekinlari - jami	-	-	-
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	-	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-
Kartoshka	-	-	-
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	-	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-
Sabzavotlar – jami	1	2	150,0
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	-	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1	2	150,0
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-
Oziqbop poliz – jami	-	-	-

	tonna		o'sish sur'ati, %
	2022 y.	2023 y.	

shu jumladan:

fermer xo'jaliklari	-	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-
Mevalar va rezavorlar –jami	-	-	-

shu jumladan:

fermer xo'jaliklari	-	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-
Uzum – jami	-	-	-

shu jumladan:

fermer xo'jaliklari	-	-	-
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	-	-	-
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-

Chorvachilik. 2023 yilning 1 aprel holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan yirik shoxli qoramollar 102,3 foizga (jami 55201 boshni tashkil qildi), shu jumladan sigirlar 100,0 foizga (16595 bosh), qo'y va echkilar 101,8 foizga (33612 bosh) o'sdi.

**1 aprel holatiga chorva mollari
va parrandalar bosh soni**

	bosh		o'sish surati, %
	2022 y.	2023 y.	
Yirik shoxli qoramollar	53 942	55 201	102,3
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	1 800	1 863	103,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	52 020	53 203	102,3
Qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	122	135	110,7
ulardan sigirlar	16 588	16 595	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	513	469	91,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	16 050	16 101	100,3
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	25	25	100,0
Qo'y va echkilar	33 023	33 612	101,8
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	2 860	3 221	112,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	29 652	29 684	100,1
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	511	707	138,4

	bosh		o'sish surati, %
	2022 y.	2023 y.	
Otlar	1 384	1 393	100,7
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	110	83	75,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 272	1 275	100,2
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2	35	17,5 m.
Parrandalar	64 759	79 225	122,3
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	2 704	1 460	54,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	61 995	77 705	125,3
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	60	60	100,0


Dehqon va tomorqa xo'jaliklarida yirik shoxli qoramollarning ulushi 96,4 foizni, fermer xo'jaliklarida esa 3,4 foizni, shu jumladan, sigirlar mos ravishda 97,0 va 2,8 foizni, qo'y va echkilar 88,3 va 9,6 foizni, otlar 91,5 va 6,0 foizni, parrandalar 98,1 va 1,8 foizni tashkil etdi.

2023 yilning yanvar-martida barcha toifadagi xo'jaliklarda tirik vazn hisobida 778 tonna go'sht (2022 yilning yanvar-martiga nisbatan 99,6 foiz), 2712 tonna sut (101,7 foiz ko'p), 2507 ming dona tuxum (99,7 foiz) ishlab chiq

Yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari

	2022 y.	2023 y.	o'sish sur'ati, %
Go'sht (tirik vaznda), tonna	781	778	99,6
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	10	1	9,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	770	777	100,9
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1	0	0,0
Sut, tonna	2 666	2 712	101,7
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	26	20	76,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 620	2 689	102,6
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	20	3	14,0
Tuxum, ming dona	2 514	2 507	99,7
<i>shu jumladan:</i>			
fermer xo'jaliklari	9	1	10,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 505	2 506	100,0
qishloq xo'jaligi faolyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	-	-	-

2023 yilda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jaliklar toifalarining ulushi



Fermer xo'jaliklari. 2023 yilning yanvar-martida fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 2,5mlrd so'mni tashkil qildi.

2023 yilning 1 aprel holatiga fermer xo'jaliklarida 1863 bosh yirik shoxli qoramol, shu jumladan 469 bosh sigir, 3221 bosh qo'y va echkilar, 83 bosh ot 1460 bosh parrandalar mavjud.


VIII. DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, Kegeyli tumanida 2023 yilning 1 aprel holatiga doimiy aholi soni 74,3 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 0,1 ming kishiga yoki 100,1foizga ko'paydi.

Doimiy aholi soni
(2023 yil 1 aprel holatiga, ming kishi)

	Jami aholi soni	Jami aholi sonidan:	
		Shahar aholisi	Qishloq aholisi
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 981,8	968,7	1 013,1
Kegeyli tumani	74,3	30,0	44,3
ulushi, %	3,7	3,1	4,4

Shahar va qishloq aholisi tarkibi (foizda)



Shuningdek, 2023 yilning 1 aprel holatiga Kegeyli tumanida 51,3 % erkaklar va 48,7 % ayollar tashkil etgan. Demak, Kegeyli tumanida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan ko'proq ekanligini kuzatishimiz mumkin.

Yanvar-mart oylarida aholining tabiiy harakati

	kishi		o'sish, kamayish	har 1000 aholiga, nisbatan	
	2022 y.	2023 y. ¹⁾		2022 y.	2023 y. ¹⁾
Tug'ilganlar	343	322	-21	18,9	17,6
O'lganlar	91	106	15	5,0	5,8
shu jumladan					
Tabiiy o'sish	252	216	-36	13,9	11,8
Nikohlar	150	131	-19	8,3	7,2
Ajralishlar	19	20	1	1,0	1,1

Tug'ilish darajasi. 2023 yilning yanvar-mart holatiga Kegeyli tumanida tug'ilganlar soni 322 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (343 kishi) nisbatan 21 taga kamaydi. Tug'ilish koeffitsienti mos ravishda 17,6 promilleni tashkil qildi (2022 yilning shu davrida 18,9 promille).


O'lim darajasi. 2023 yilning yanvar-mart holatiga Kegeyli tumanida o'lganlar soni 106 kishini tashkil qildi va 2023 yilning shu davriga (91 kishi) nisbatan 15 taga o'limlar soni ko'paydi. Mos ravishda o'lim koeffitsienti 5,8 promilleni tashkil qildi. (2022 yil yanvar-martida 5,0 promille).

Tabiiy o'sish. Yuqoridagi jadvaldan shuni kuzatishimiz mumkinki 2023 yilning yanvar-mart holatiga Kegeyli tumanida 216 kishini tashkil qildi va 2022 yilning shu davriga (252 kishi) nisbatan 36 taga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

¹⁾dastlabki malumot


¹⁾dastlabki malumot

Yanvar-mart oylarida tug‘ilganlar, o‘lganlar, tabiiy o‘shish, nikoh va ajralishlar koeffitsienti



Nikoh va ajralishlar. 2023 yilning yanvar-mart oylarida FHDYo organlarida 131 ta nikohlar va 20 ta ajralishlar ro‘yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 7,2 ta nikoh (2022 yilning tegishli davrida 8,3 ta) va 1,1 ta ajralishlar (2022 yilning tegishli davrida 1,0 ta) to‘g‘ri keladi.

Tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar soni va koeffitsienti



Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari


(kishi)

	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosı	
	2022 y.	2023 y.	2022 y.	2023 y.	2022 y.	2023 y.
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 439	2 172	2 638	4 003	-199	-1 831
Kegeyli tumani	108	123	171	264	-63	-141
Qoraqalpog'iston Respublikasidagi ulushi, %	4,4	5,7	6,5	6,6	x	x

Migratsiya. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023 yilning yanvar-mart oylarida tuman bo'yicha ko'chib kelganlar soni 123 kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 264 kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 141 kishiga (2022 yilning shu davrida minus 63 kishi) teng bo'ldi.

Yanvar-mart oylarida aholining migratsiya ko'rsatkichlari

(kishi)



IX . O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

**2023 yilning yanvar-mart oylari uchun o‘rtacha nominal
hisoblangan ish haqi**
*(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari
ming so‘m*

	mart	yanvar-mart
Jami	2 982,4	2 885,5
shu jumladan:		
Sanoat	2 097,4	2 154,9
Qurilish	2 432,4	2 241,9
Bank, sug‘urta, lizing, kredit va vositachilik	9 367,2	7 755,5
Ta‘lim	2 786,8	2 774,8
Sog‘liqni saqlash va ijt. xizmat ko‘rsatish	2 996,5	2 890,6
Boshqa faoliyat turlari	3 779,2	3 330,7

2023 yilning yanvar-mart oylarida Kegeyli tumanida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 885,5 ming so‘mni tashkil etdi.

Bunda ish haqiga ustama, mukofot, rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to‘lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig‘i, ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasiga to‘lovlar ham mavjud.

**2023 yilning yanvar-mart oylari uchun o‘rtacha nominal
hisoblangan ish haqi**
(qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)

ming so‘m

	mart	yanvar-mart
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3 701,0	3 468,2
Nukus sh.	5 055,1	4 595,2
<i>tumanlar:</i>		
Amudaryo	2 446,5	2 368,3
Beruniy	2 728,5	2 658,3
Bo‘zatov	2 699,4	2 528,2
Qonliko‘l	2 940,4	2 827,4
Qorao‘zak	2 796,6	2 690,8
Kegeyli	2 982,4	2 885,5
Qo‘ng‘irot	4 140,0	4 022,8
Mo‘ynoq	2 951,2	2 736,7
Nukus	3 707,8	3 387,6
Taxiatosh	4 023,9	3 621,0
Taxtako‘pir	2 482,9	2 370,8
To‘rtko‘l	2 970,7	2 851,0
Xo‘jayli	3 169,6	3 043,1
Chimboy	3 098,2	2 915,4
Shumanay	2 767,1	2 626,5
Ellikqal‘a	2 885,5	2 811,9

Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rtacha oylik ish haqining eng past miqdori Amudaryo tumani 2 368,3 ming so‘m (respublikadagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 68,3 foiz), Taxtako‘pir tumanida 2 370,8 ming so‘mni (68,4 foiz) va Bo‘zatov tumanida 2 528,2 ming so‘mni (72,9 foiz) tashkil etgan.

**KEGEYLI TUMANINING
MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARI
2023 yil yanvar-mart**

Nashrga mas'ul:

*Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi
tel. (361) 222-74-58*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi
Nukus sh., A.Dosnazarov ko'chasi, 97a
www.qrstat.uz*